

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**



**STAJYOR-TADQIQOTCHILIK, TAYANCH DOKTORANTURA VA
DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI**

D A S T U R I

18.00.02 – «Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini» (texnika)

Toshkent - 2025 y.

Dastur Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Ilmiy-texnik kengashida ko'rib chiqilgan va 2025-yil "4" sentyabrdagi "2" – sonli majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

- Xotamov A.T. – TAQU "Shahar infratuzilmasi" kafedrasini mudiri, texnika fanlari doktori, professor.
- Abdixalilov F.A. – TAQU "Shahar infratuzilmasi" kafedrasini, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

- Adilov Z.X. – TAQU "Shaharsozlik" kafedrasini mudiri, arxitektura doktori, professor;
- Usmonov Q.T. – TAQU "Shahar infratuzilmasi" kafedrasini, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Ushbu dastur "Shahar infratuzilmasi" kafedrasining 2025 yil 95 "08" dagi 1-son majlisida ko'rib chiqilgan.

"Shahar infratuzilmasi"
kafedrasini mudiri

t.f.d., prof. Xotamov A.T.

1. Kirish

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi nizom" va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 iyuldagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizom" asosida tayyorlangan.

Mazkur dasturda 18.00.02 – "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini" (texnika) ilmiy ixtisosligi bo'yicha stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturada o'qishga qabul imtihoni va suxbat o'tkazish tartibi va uni baholash tizimiga oid masalalar yoritilgan. Ushbu dastur Toshkent arxitektura-qurilish universitetiga 18.00.02 – "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini" (texnika) ilmiy ixtisosligi bo'yicha stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturaga kirish uchun xujjat topshiruvchi talabgorlar va qabul komissiyasi a'zolari uchun mo'ljallangan.

2. Kirish imtixonining maqsad va vazifalari

Ushbu dastur 18.00.02 – "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini" (texnika) ilmiy ixtisosligi pasporti asosida ishlab chiqildi.

Kirish imtixonining maqsadi stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturaga kirish talabgorlarining (bundan keyin talabgorlar) tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularning doktoranturada o'qish uchun qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq keyingi ta'lim olish qobiliyatini baholashdan iborat.

Ushbu dastur shahar qurilishida muxandislik chora-tadbirlar, shaharlarni barpo etish, qayta qurish, modernizatsiya qilish, shahar va qishloq aholi punktlari yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish, turar-joy va jamoat binolarini texnik baholash, shahar hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, bino va inshootlarni ekspluatatsiyasini tashkil etish bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, 18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini mutaxassisligidan texnika fanlari bo'yicha falsafa doktorlari (PhD) tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Shu boisdan, shaharsoz-muhandis shaharlarni rejalashtirish va hududiy joylashtirish, shaharlarda transportni tashkil etish, bino va inshootlarni texnik xavfsizligini ta'minlash, shahar hududini sanitar-gigienik holatini yaxshilash, shahar hududini kompleks obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar estetikasi bo'yicha mutaxassislardan, ularning yuqori darajadagi bilim va kasbiy malakalarga ega bo'lishligi, loyihalash, qurish va ekspluatatsiya bilan bog'liq ilg'or usullarini puxta o'rganishlari, bu borada, ayniqsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llab, muhandislik chora-tadbirlarning zamonaviy usullaridan foydalana bilishlari talab etiladi.

Dasturning maqsadi - kadrlarga zamonaviy talablarni ko'zda tutib, doktoranturada o'z dissertatsiya ishini himoya qiluvchilarning arxitektura va shaharsozlik asoslari, bino va inshootlarni texnik ekspluatatsiyasi, shahar hududini kompleks obodonlashtirish, shahar ko'chalari, yo'llari va transport, shaharlarni rejalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish kurslari bo'yicha bilimlarini ob'ektiv aniqlash va baholashdan iborat.

Mazkur kirish imtihonlar Dasturiga quyidagi fanlar kiradi: Arxitektura va shaharsozlik asoslari, bino va inshootlarni texnik ekspluatatsiyasi, shahar hududini kompleks obodonlashtirish, shahar ko'chalari, yo'llari va transport, shaharlarni rejalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish.

3. Talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

Kirish imtihonlari dasturiga doktoranturada ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash dasturi bo'yicha 18.00.02 – "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini" (texnika) ilmiy mutaxassisligi bo'yicha mutaxassis yoki magistr o'zlashtirishi kerak bo'lgan asosiy savollar kiritilgan.

Talabgor ilmiy mutaxassislik sohasidagi asosiy nazariy ma'lumotlarni bilishi, ushbu ma'lumotlarning amaliy qo'llanilishini, berilgan muammolarni hal qilish usullarini bilishi va terminologiyani o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

I - qism

Tayanch doktoranturaga kirish imtihonini tashkil qilish

4. Kirish imtihoni shakli va davomiyligi

Tayanch doktoranturaga kirish imtihoni 4 ta savoldan iborat bo'lib, dastlabki 3 ta savol yozma shaklda, 4-savol og'zaki suhbat shaklida o'tkaziladi.

1–3-savollar bo'yicha talabgorlarga yozma javob tayyorlash (yozish) uchun 90 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt beriladi.

4-savol (og'zaki shaklda)

Talabgorga 10–15 daqiqa tayyorlanish uchun vaqt beriladi, javobni imtihon komissiyasi a'zolari tinglaydi.

Savol: Siz tanlagan ilmiy yo'nalish bo'yicha dissertatsiya mavzusi doirasida ilmiy tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqing: mavzuning dolzarbligi, maqsadi, asosiy vazifalari, tadqiqot metodlari va kutilayotgan ilmiy natijalarini qisqacha bayon qiling.

5. Baholash mezonlari

Kirish imtihonining natijasi 100 ballik tizimda baholanadi. 1–3-savollar uchun yozma javoblar, 4-savol uchun og'zaki javob baholanadi. Har bir savol maksimal 25 ball bilan quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1–3-savollar uchun yozma javoblarni baholash mezonlari

Mezon	Ballar miqdori
Javob to'liq, izchil va mantiqiy, mavzu chuqur yoritilgan, savollarga aniq javob berilgan	25
Xatolar bilan, lekin asosiy qism to'g'ri va tushunarli yoritilgan	15
Mavzuning faqat asosiy qismi qisman yoritilgan, to'liq emas	10
To'liq bo'lmagan, jiddiy xatolar bor	5
Javob tayyorlanmagan yoki noto'g'ri	0

4-savol uchun og'zaki suhbatni baholash mezonlari

Ko'rsatkichlar	Tavsifi	Ball
Mavzuning dolzarbligi	Tanlangan mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan	5 ball
Maqsad va vazifalar	Maqsad va vazifalar aniq va mantiqan bog'langan	5 ball
Tadqiqot metodlari	Ilmiy usullar to'g'ri tanlangan va izohlangan	5 ball
Kutilayotgan natijalar	Ilmiy yangilik va amaliy ahamiyat ko'rsatib berilgan	5 ball
Mantiqiylik va nutq madaniyati	Javob izchil, tushunarli va ilmiy uslubda ifodalangan	5 ball

6. Yakuniy ballar teng bo'lganda ustunlik berish tartibi

Agar stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga kirish imtihonlari yoki suhbat natijalari bo'yicha bir nechta talabgorlarga qo'yilgan yakuniy ballar teng bo'lsa, quyidagi ustunliklar qo'llaniladi:

a) Stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktorantura uchun:

- magistraturani a'lo baholar bilan tamomlaganlarga;
- mualliflik guvohnomalari va patentlarga ega bo'lganlarga;
- ilmiy maqolalari, jumladan, xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganlarga.

b) Doktorantura uchun:

- 5 yildan ortiq ilmiy-pedagogik stajga ega bo'lganlarga;
- mualliflik guvohnomalari va patentlarga ega bo'lganlarga;
- monografiyaga ega bo'lganlarga (ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun);
- dissertatsiya mavzusi bo'yicha tegishli ilmiy jurnallarda, jumladan xorijiy jurnallarda ko'p miqdorda ilmiy maqolalar chop etganlarga;
- dissertatsiya tadqiqotining 50 foizdan ortiq qismini bajarganlarga.

Tayanch doktoranturaga kirish imtihonining bo'limlari va mavzulari ro'yxati

1. Arxitektura va shaharsozlik asoslari

Zamonaviy bino va inshootlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Binolarni tasniflash. Binolarga qo'yiladigan asosiy talablar. Binolarning hajmiy-rejaviy yechimi to'g'risida tushuncha. O'lchamlar, modullar. Qurilishda unifikatsiya, tipizatsiya, standart. Binolarning asosiy konstruktiv elementlari. Asoslar va poydevorlar. Tabiiy va sun'iy asoslar xaqida tushuncha. Poydevorlarning turlari, ularning tavsifi. Hidrozolyatsiya. Yertulalar. Poydevorlar va devorlar. Ularga bo'lgan ta'sirlar. Devor va pardevorlarga bo'lgan talablar. Devorlarning arxitektura konstruktiv elementlari. Pol va orayopmalar. Belgilanishi bo'yicha orayopmalar tavsifi. Orayopmalarga bo'lgan ta'sirlar. Ularga bo'lgan talablar. Orayopmalarning konstruktiv yechimlari. Tomlar. Tomyopmalar. Ularga bo'lgan ta'sir va talablar. Fuqaro binolarning asosiy hajmiy-rejaviy sxemalari. Turar joy binolarning rejaviy tarkibi va turlari. Ularning tavsifi. Jamoat binolarining rejaviy tarkibi va turlari. Jamoat binolarining loyihalarini texnik-iqtisodiy baxolash.

2. Bino va inshootlarni texnik ekspluatatsiyasi

Bino va inshootlarni ekspluatatsiyaga topshirish. Ekspluatatsiyaga topshiriladigan binolarda sifat nazoratini tashkil qilish. Binolarning ekspluatatsiyasini tashkil qilish. Texnik ekspluatatsiyaning tarkibi va masalalari. Bino va inshootlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar. Bino va inshootlarning ishonchlilik. Kafolat muddati va me'yoriy xizmat muddatlarining belgilanishi. Bino va inshootlarning jismoniy eskirishi. Jismoniy eskirishning turlari. Qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan jismoniy eskirish. Jismoniy eskirishni aniqlash usullari. Bino va inshootlarda ma'naviy eskirishi. Ma'naviy eskirish shakllari, ularni aniqlash usullari. Qurilish konstruksiyalarining namlanishi turlari va ularning oqibatlari. Qurilish namligi tushunchasi. Binolarning barvaqt eskirishi, ularni oldini olish chora-tadbirlari. konstruksiyalarni himoya qatlamlari. Binolarning konstruksiyalarining texnik holat kategoriyalari. Binolarning texnik inventarizatsiya va pasportlashtirish. Elektron pasport. Fuqaro binolarini texnik ekspertizadan o'tkazish. Tekshiruv maqsadlari. Texnik diagnostika. Beton va temirbeton, yog'och, metall, g'isht-tosh konstruksiyalarining eskirishi. Ularni oldini olish chora-tadbirlari. Zamin va poydevorlar ekspluatatsiyasi. Ularda paydo bo'ladigan shikastlanish va deformatsiya holatlari. Binoning boshqa yuk kutaruvchi konstruksiyalarining ekspluatatsiyasi. Ularda paydo bo'ladigan shikastlanish va deformatsiya holatlari. Defektlar. Ularning turlari va kelib chiqishi sabablari. Binolarga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish. Joriy va kapital ta'mirlash. Joriy va kapital ta'mirlashda bajariladigan ishlar turlari. Binolarga tutash hududlar ekspluatatsiyasi. Binolarning zilzilabardoshligini ta'minlash va ularni baholash. Binolarning olovbardoshligini ta'minlash va ularni baholash

3. Shahar hududini kompleks obodonlashtirish.

Shahar hududini kompleks obodonlashtirish darajasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Shahar hududlarini kompleks obodonlashtirish asoslari tarixi va rivojlanish tendensiyalari. Tirgak devorlar. Gabion konstruksiyalari. Shaharsozlikda ularning ahamiyati. Landshaft dizaynida qo'llaniladigan sun'iy materiallar. Geotekstil va boshqa materiallar. Tabiiy sharoitlarni shaharsozlik nuqtai-nazaridan tahlil qilish. Hududni rejalashtirish va injenerlik obodonlashtirishda shaharsozlik prinsiplari. Obodonlashtirishning injenerlik-arxitekturaviy tahlili. Shahar muhitini obodonlashtirishda obodonlashtirish elementlarining funksional tizimi; ko'kalamzorlar tizimini loyihalash prinsiplari. Ko'kalamzorlarning shahardagi me'moriy-badiiy, estetik, ekologik, sanitariya-gigienik ko'rsatkichlarining tahlili. Shaharda mikroiklimni shakllantirish prinsiplari. Shaharning injenerlik ta'minoti. Yer osti injenerlik tarmoqlarini joylashtirish prinsiplari va ularni o'rnatish usullari. Kollektorlar tizimi. Turar-joy maskanlarining injenerlik jihozlari. Shaharlarda oqova suv tarmog'ini rejalashtirish. Shahar ichimlik suv tarmog'i. Istirohat bog'larini injenerlik jihozlash prinsiplari. Shahar sug'orish tarmog'i tizimi. Shahar hududini sug'orish tizimini takomillashtirish. Obodonlashtirishda landshaft elementlaridan foydalanish tamoyillari. Landshaft arxitekturasining shaharsozlikdagi o'rni. Mikrorayon ichki yo'llari. Avtomobillar tuxtash joylari va garajlar. Bog' va istirohat bog'larini yo'laklari.

4. Shahar ko'chalari, yo'llari va transport.

Shahar ko'cha-yo'llarini funksional rejalashtirish. Yo'lining rejasi, ko'ndalang va bo'yilama kesimi elementlari. Shahar ko'cha-yo'llarini rejalashtirish va obodonlashtirish vazifalarining tasnifi. Shahar ko'chalari va yo'llariga qo'yiladigan asosiy talablar. Shahar ko'chalari va yo'llarining loyihalashtirish usullari. Shahar ko'chalari va yo'llarining tasnifi. Har xil sinfdagi ko'chalarning joylashtirish holatlari va ularni bir - biri bilan bog'liqligi. Shahar ko'chalarning ko'ndalang qirg'imini loyihalashtirish. Shahar ko'chalari va yo'llarning rejasini loyihalashtirishning xususiyatlari. Chorrahalar va kesishmalarining o'tkazib yuborish qobiliyati. Mashinalar, yo'lovchilar yuradigan joylarning enini aniqlash, gorizontal bo'yicha egri chiziqlar, virajlar va serpantinlar. Ko'ndalang qirg'inning ko'rinishi. Avtomobil yo'l yoqalarida qisqa muddatli dam olish va servis ob'ektlarini rejalashtirish.

5. Shaharlarni rejalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish.

Turar-joy hududlarini rejalashtirish. Shaharlarning rejalashtirish tarkibi. Shahar hududini funksional zonallashtirish. Batafsil shaharsozlik tuzilishi hududni qayta rejalashtirish bilan bog'liqligi. Shaharsozlik bo'yicha ilmiy-loyihaviy ishlar, tuman rejalashtirish o'rni va ahamiyati. Hududning antropogen xususiyatlarining baholanishi. Tuman rejalashtirish demografik sig'imini aniqlash. Shaharlar rivojining demografik jarayonlari. Shaharlarning mehnat resurslari. Yangi hududlar tanlash va mavjud shaharlarning rivojlanishi. Shaharsozlik tipologiyasi. Shaharlarning rejaviy tashkil etilishi. Shaharning axoli turar joy zonasi. Turar joy

tumanlari. Shaharning ishlab chiqarish va omborxonalar hududi. Shaharning rekreatsiya hududi. Shahar axolisi va mehnat resurslari. Tuman rejalash hududlarining joylashuvi. Ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirish. Agrosanoat kompleksi. Funktsional hududlash va rejaviy struktura. Axoliga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari va ularning joylashuvi. Axolining dam olish, kurort davolanish va turizm ob'ektlarining joylashuvi. Hududning estetik tashkil etilishi. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash. Tuman rejalashning transport masalalari. Tuman rejalashning muhandislik va texnik infratuzilmasi.

II qism

Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturaga o'qishga qabul qilish suxbatini tashkil qilish

Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturaga kirish imtihonlari to'liq suhbat (og'zaki) shaklida o'tkaziladi. Suhbat davomiyligi 30 daqiqagacha bo'lib, komissiya a'zolari tomonidan savol-javob tarzida olib boriladi.

Doktoranturaga qabul qilish suhbatini tashkil etish tartibi

fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlash uchun doktoranturaga kirishda topshiriladigan xujjatlar ro'yxatidagi "tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi" da keltiriladigan ma'lumotlar ro'yxati.

Rejalashtirilgan dissertatsiya mavzusining nomi 18.00.02 – "Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini" (texnika) ilmiy mutaxassislik pasportiga muvofiq yo'nalishlarga mos kelishi kerak. Batafsil reja quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ilmiy muammo shakllantiriladi, uning dolzarbligi va ishning gipotezasi asoslanadi;
- 5 yildan ortiq bo'lmagan manbalar asosida o'rganilgan materiallarga asoslangan analoglar (dastlabki adabiyotlar tahlili) taqdim etiladi;
- tadqiqotning maqsadi, vazifalari va muammolarni hal qilish uchun taklif qilingan echimlar shakllantiriladi;
- ilmiy tadqiqot olib borish uchun asos (kafedra, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot instituti, boshqa muassasalar), uning tadqiqotning talab qilinadigan hajmlari va ob'ektlarini taqdim etish qobiliyati ko'rsatilgan;
- tadqiqot ob'ekti, predmeti va rejalashtirilgan tadqiqotning o'ziga xos usullari va usullari ko'rsatiladi;
- kutilayotgan natijalar, qo'llash va amalga oshirishning mumkin bo'lgan doirasi (shakllar, bosqichlar, darajalar) ko'rsatilgan;
- ishni bajarishning kalendar muddatlari ko'rsatilgan (aniqrog'i, kalendar davrining oxiri va o'quv yoki tanlovni yakunlash uchun rejalashtirilgan dissertatsiya kengashiga taqdim etishgacha bo'lgan barcha bosqichlar).

Stajyor-tadqiqotchilikka qabul qilish suhbatini tashkil etish tartibi

Suhbatning asosiy maqsadi — talabgorning tanlangan ixtisoslik bo'yicha ilmiy salohiyati, mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyati va motivatsiyasini aniqlash.

Tanlangan ixtisoslik bo'yicha nazariy bilimlar:

Asosiy ilmiy tushunchalar, tadqiqot uslublari, sohaga oid zamonaviy ilmiy yutuqlarni bilish darajasi.

Tadqiqot mavzusi va dolzarbligi:

Talabgor tomonidan taklif etilgan dissertatsiya mavzusi dolzarbligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.

Ilmiy tayyorgarlik:

Avvalgi ilmiy ishlari (maqolalar, tezislar, patentlar va b.), konferensiyalardagi ishtiroki, ilmiy qiziqish doirasi.

Metodologik yondashuvlar:

Talabgorning tanlangan mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqot usullarini qo'llay olish qobiliyati.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi nizom".
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 iyuldagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizom".
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 29 avgustdagi 679-sonli "Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan ehtiyojlar uchun yer uchastkalari berish, shuningdek ob'ektlarni qurishga ruxsatnomalar berish tartibini tubdan soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
7. O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi. T.: 2021. 21.02.
8. Abdixalilov F.A. "Shaharlarda transportni rejalashtirish" O'quv qo'llanma. Toshkent 2024 y.
9. Babkov V.F., Andreev O.V. "Avtomobil yo'llarini qidiruv va loyihalash", I, II-qism. Toshkent, 2015 y.
10. Vlasov D.N. "Transportno-peresadochnye uzly". Moskva, 2017 yil.
11. Xotamov A.T., Shaxidov A.F. Shahar ko'chalari, yo'llari va transport. Darslik. Toshkent 2020 y. 340 b.

12. Xotamov A.T. «Bino va inshootlarning texnik xavfsizligi». Darslik. Toshket 2022 y. 348 b.
13. Xotamov A.T. Uy-joy fondining jismoniy eskirishini baholash metodologiyasi. Monografiya. Toshket 2023 y. 165 b.
14. Nizomov Sh.R., Xotamov A.T. «Bino va inshootlarni texnik baxolash» I-qism, Toshkent-2013y.
15. Kadabaeva Sh.S. «Arxitektura va shaharsozlik asoslari. Darslik. Toshkent. 300 v., 2021 yil.
16. Kossov A.V., Baxirev I.A. i dr. «Transportnaya planirovka gorodov». Uchebnoe posobie. Moskva, 2017 g.
17. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. «Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini». Darslik. I-qism., Toshkent, 2009
18. Isamuxamdova D.U., Adilova L.A. «Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini». Darslik. 2-qism., Toshkent, 2009
19. Isamuxamedova D.U. Ismailov A.T., Xotamov A.T. «Injenerlik obodonlashtirish va transport». Darslik., I-qism., Toshkent, 2009
20. Konsepsiya razvitiya gradostroitelstva Uzbekistana v usloviyax formirovaniya novyx sotsialno-ekonomicheskix otnosheniy. T. TASI 2008
21. ShNQ 2.07.01-23 Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish. O'zbekiston Respublikasi QURUKK. T. 2024.
22. Ubaydullaev X.M., Inog'omova M.M. «Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari» darslik., Toshkent 2009 y.
23. Xidoyatov T.A. «Tipologiya obshchestvennykh zdaniy» o'quv qo'llanma., Tashkent 2008g.
24. X.M. Ubaydullaev, G.I. Korobovsev, Y.I. Abduraxmanov, Ya.M. Mansurov «Arxitekturaviy loyihalash» o'quv qo'llanma., Toshkent 2012.
25. B.I. Inogomov «Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash» Toshkent o'quv qo'llanma., 2011y
24. A.L. Gelfond «Proektirovanie obshchestvennykh zdaniy» Moskva 2008.
25. S. Selimova. «Formirovanie ponyatiya Landshaftnyy urbanizm v gradostroitelstve». Natsionalnaya akademiya prirodooxrannogo i kurortnogo stroitelstva. Donbass. 2014 g.
26. Gluxov A.T., Vasilev A.N., Guseva O.A. Transportnaya planirovka zemleustroystvo i ekologicheskii monitoring gorodov. Uchebnoe posobie. Sankt-Peterburg-Moskva-Krasnodar 2022 g.
27. D. Meyer «Transport planning» O'quv qo'llanma", London, 2016
26. www.lex.uz

18.00.02 – «Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar-joylarini rejalashtirish. Landshaft arxitekturasini. Bino va inshootlar arxitekturasini» (texnika) ixtisosligi bo'yicha yozma savollar

1. Binoning asosiy hajmiy-rejaviy yechimi.
2. Tomyopmalar. Ularga qo'yilgan asosiy talablar.
3. Binolardagi kommunikatsiya tizimlari.
4. Turar joy binolarining rejaviy tarkibi va turlari.
5. Stadionlarni injenerlik obodonlashtirishga qo'yiladigan talablar.
6. Jamoat binolarining rejaviy tarkibi va turlari.
7. O'zbekistonning fuqaro binolari qurilishidagi arxitektura kompozitsiyalarining yangi tiplari
8. Binolarining zilzilabardoshiligi masalalari.
9. Asoslar va poydevorlar.
10. Devor va pardevorlarga bo'lgan talablar.
11. Pol va orayopmalar.
12. Orayopmalarining konstruktiv yechimlari.
13. Fuqaro binolarining asosiy hajmiy-rejaviy sxemalari.
14. Eshik va derazalar va ularning konstruktiv elementlari.
15. Fuqaro binolarining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash Turar-joy va jamoat binolarining kapitallik sinflari.
16. Binolarining normativ va haqiqiy xizmat davrlari.
17. Bino va inshootlarning jismoniy eskirishi.
18. Jismoniy eskirishning turlari.
19. Qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan jismoniy eskirish.
20. Bino va inshootlarda ma'naviy eskirishi.
21. Qurilish materiallari va konstruksiyalarga quyiladigan talablar
22. Bino va inshootlarni ekspluatatsiyaga topshirish.
23. Ekspluatatsiyaga topshirishda sifat nazoratini tashkil etish masalalari.
24. Bino va inshootlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar
25. Bino va inshootlarning ishonchliligi.
26. Fuqaro binolarini texnik ekspertizadan o'tkazish.
27. Kuzatuv-tekshiruv ishlari, ularning ketma-ketligi.
28. Turar-joy binolarini ta'mirlash.
29. Joriy ta'mirlashda bajariladigan ishlar turlari.
30. Shahar ko'cha-yo'llarini rejalashtirishning asosiy vazifalari.
31. Shahar ko'cha-yo'llariga qo'yiladigan asosiy talablar.
32. Aloqa yo'llari va ularning turlari.
33. Shahar va qishloq aholi punktlari yo'llarining prinsipial sxemalari.
34. Shahar yo'llarini umumfoydalanuvdagi yo'llar bilan bog'lashning prinsipial sxemalari.
35. Shahar shahar ko'cha-yo'llaridan suvlarni chetlatish.
36. Shahar ko'cha-yo'llarini loyihalashda plan trassa o'tkazish.
37. Shahar ko'cha-yo'llarining bo'ylama kesimini loyihalash.
38. Shahar ko'cha-yo'llarining ko'ndalang kesimini loyihalash.

39. Avtomobil yo'llarini jihozlash.
40. Transport tizimi va turlari haqida umumiy tushunchalar.
41. Shahar transportining ekologiyaga ta'siri.
42. Shaharlarda piyoda va velospid yo'laklarni rejalashtirish.
43. Shaharlarda piyodalar harakatini tashkil etish.
44. Piyodalar yo'llarini kesib o'tish joylarini loyihalash.
45. Jamoat transportida yo'lovchilar oqimini hisoblash usullari.
46. Transport shovqinining atrof muhitga ta'siri qarshi chora tadbirlar.
47. Avtomobil yo'li yoqalarida avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchasi (AYoQSh) larni rejalashtirish.
48. Avtomobil yo'li yoqalarida dam olish maydonlarini joylashtirish.
49. Velospid yo'lagi elementlarini hisoblash.
50. Shaharlarni obodonlashtirishning kompleks rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
51. Shaharsozlikda rel'ef bo'yicha noqulay hududlar.
52. Shahar hududini shaharsozlik nuqtai nazaridan baholash.
53. Shaharni obodonlashtirish va bosh rejasi.
54. Shaharni funksional zonalashda transport tarmog'ining ahamiyati.
55. Hududlarni tabiiy jarayonlardan himoya qilish.
56. Shahar muhitini transport shovqinidan himoyalashda qullaniadigan chora-tadbirlar.
57. Shahar muhitini transport shovqinidan himoyalashda qullaniadigan ekran konstruksiyalari.
58. Shahar muhitini transport chiqindi gazidan himoyalashda qullaniadigan chora-tadbirlar.
59. Shaharlarni kompleks obodonlashtirishda yer osti urbanistikasi.
60. Avtotransport xo'jaligi, garajlar, omborxonalar va boshqa kommunal ob'ektlarini yer ostida joylashtirish masalalari.
61. Sport inshootlarini obodonlashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar.
62. Stadionlar. Ularning turlari va vazifalari.
63. Hududlarni sanitar tozalash bo'yicha xorijiy tajribalar.
64. Shahar hududini yoritishning zamonaviy usullari.
65. Shaharning funksional mazmuni nimadan iborat?
66. O'rta asr shaharlarining sxematik tuzilishi.
67. Shahar muhitini funksional qismlarga bo'lish nima?
68. Shaharsozlik masalalarida majburiy shart bu?
69. Shaharsozlikni subektlari va obektlari.
70. Axoli joylashuvi turi qanday aniklanadi?
71. Tuman yashovchilarining eng yuqori sonini aniqlashni rejalashtirishda kunlik ehtiyojlar taminlash sharti bilan qanday aniqlanadi?
72. Tuman rejalashtirishning sxemasi qaysi muddatga mo'ljallangan bo'lib amalga oshiriladi?
73. Shaharsozlikning ijtimoiy demografik vazifalari.
74. Dam olish va turizm markazlarini tashkillashtirishda ximoya qilish uslublarini ayting?

75. Ko'p funksiyali parklar hududi qanday qismlarga bo'linadi?
76. Tumanni rejalashtirishning maksad va vazifalari?
77. Tumanni rejalashtirish va axoli joylashuvi
78. Tumanni rejalashtirish sxemasi?
79. Shaharda turar joy tumanini tashkil qilish.
80. Rekreatsion zonalarni loyihalash.